

# QASHQADARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2020- yil 1- iyun holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25- sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

## **Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor**

*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*


*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*

*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*

## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vog'ar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

## Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

11 588



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

1 618



Oilaviy korxonona

175



Unitar korxonona

9 143



Xususiy korxonona

45




Aksiyadorlik jamiyati

353




Boshqalar

Mas'uliyati cheklangan jamiyat birlik



Xususiy korxonona birlik



### Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



### Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

## Yangi tashkil etilgan korxonona va tashkilotlar soni


(yanvar-may oylarida, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-may oylarida, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020- yil yanvar-may oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020- yilning yanvar-may oylarida 2 090 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 175 ta, xususiy korxonalar – 520 ta, oilaviy korxonalar – 289 ta, muassasalar – 35 ta va boshqalar – 71 tani tashkil etdi.

# Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **23,4** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**23,6**  
foizga oshdi



## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



**28,2**  
foizga oshdi



## Oilaviy korxonalar




**57,4**  
foizga oshdi



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan  
**65,0** foizga oshdi




## Xususiy korxonalar



2019- y.

2020- y.




**10,1**  
foizga oshdi




## Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korrxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korrxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,0** foizga oshdi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari




**15,2** foizga oshdi



### Mikrofirmalar




### Kichik korrxonalar




### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



**15,8** foizga oshdi



### Oilaviy korrxonalar




**69,5** foizga oshdi



### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korrxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **19,8** foizga oshdi



### Xususiy korrxonalar



**97,0** foizga kamaygan






## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korrxa va tashkilotlar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korrxa va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,8** foizga oshdi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**13,0** foizga oshdi



### Mikrofirmalar




### Kichik korrxonalar



### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**18,1** foizga oshdi



### Oilaviy korrxonalar




**14,3** foizga oshdi



### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korrxonalar soni




O'tgan yilga nisbatan **57,1** foizga oshdi



### Xususiy korrxonalar



**6,3** foizga oshdi




## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **19,4** foizga oshdi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**19,6** foizga oshdi



### Mikrofirkmalar




### Kichik korxonalar



### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**25,4** foizga oshdi



### Oilaviy korxonalar




**2,2** martaba oshdi



### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **66,7** foizga oshdi




### Xususiy korxonalar



2019- y.


2020- y.



**10,4** foizga oshdi



## Oilaviy korxonalar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, 1 618 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 647 taga yoki 66,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 544 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 593 taga yoki 62,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 289 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 taga kamayganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, 11 588 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 080 taga yoki 21,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 223 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 890 taga yoki 20,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 175 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 267 taga yoki 81,4 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, 208 tani tashkil etib, ulardan 204 tasi yoki 98,1 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 62 taga yoki 42,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-iyun oylarida viloyatimizda 14 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-may oylarida, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>5 716</b>	<b>6 300</b>	<b>7 291</b>	<b>9 333</b>	<b>11 223</b>
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	980	1 143	1 319	1 702	2 182
Sanoat	733	869	985	1 416	1 640
Qurilish	990	1 138	1 330	1 662	1 962
Savdo	1 667	1 787	1 912	2 405	3 019
Tashish va saqlash	404	492	507	612	669
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	172	200	223	288	332
Axborot va aloqa	88	94	110	140	148
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	68	82	113	144	190
Boshqa turlar	614	695	792	964	1 083

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>477</b>	<b>589</b>	<b>951</b>	<b>1 544</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	103	106	162	255
Sanoat	114	165	295	500
Qurilish	9	12	14	16
Savdo	84	93	165	331
Tashish va saqlash	9	10	9	13
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	88	115	194	276
Axborot va aloqa	1	2	8	11
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	10	14	30	31
Boshqa turlar	59	72	74	111

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)





## Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>204</b>	<b>150</b>	<b>54</b>
Qarshi sh.	54	45	9
Shahrisabz sh.	5	1	4
tumanlar:			
G'uzor	11	9	2
Dehqonobod	12	9	3
Qamashi	13	8	5
Qarshi	15	9	6
Koson	19	13	6
Kitob	16	11	5
Mirishkor	5	4	1
Muborak	8	6	2
Nishon	15	14	1
Kasbi	5	3	2
Chiroqchi	8	7	1
Shahrisabz	5	4	1
Yakkabog'	13	7	6

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.


**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining [www.qashstat.uz](http://www.qashstat.uz) rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi**  
**Statistik registrlarni**  
**yuritish bo'limi**  
**Tel.:(75) 220-03-98**